

Internetda pedagogning shaxsiy kabineti

2020-yil 22-23 -yanvar kunlari soat 15-00 dan 17-00 gacha "Axborot tizimlarini joriy etish" bo'limi tomonidan "Staff.tiame.uz-o'qituvchilar uchun ochilgan shaxsiy kabineti" mavzusida seminar tashkil etildi. Seminarda institut kafedralari o'qituvchi va xodimlari qatnashdilar. Ular "Axborot tizimlarini joriy etish" bo'limi boshlig'i I. Bozarov tomonidan aniq va tushunarli tarzda qilingan ma'ruzani tinglab, "O'qituvchining shaxsiy kabineti ya'ni staff.tiame.uz" haqida to'la ma'lumotga ega bo'ldilar.



"Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasida doktoranti X.Tuychiyev, "Geodeziya va Geoinformatika" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi N.Mirjalolovlarning ma'ruza yuzasidan bergan savollariga asosli javoblar berildi. Seminar qizg'in, savol-javoblarga boy yo'sinda o'tdi.



Axborot tizimlarini joriy etish muhandis-dasturchisi N.Mirxanova axboroti

Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov